

XOJA ASARLARINING LEKSIK XUSUSIYATLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10431272>

Danabekov Ozodbek Imomali o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU

O'zbek filologiyasi fakulteti O'zbek tilshunosligi

mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada XV asrning oxiri XVI asrning boshlarida yashab ijod etgan Podshohxo'ja asarlarining tili va uslubi atroficha tadqiq etilib, unda adib asarlari tilida qo'llanilgan leksik birliklarning qatlami xususida to'xtalib o'tilgan. Bundan tashqari adib asarlari tilining leksik-semantik xususiyatlari o'rGANILGAN. Asarda qo'llanilgan istilohlarning mavzuviy guruhlari aniqlangan.

Kalit so'zlar

Podshohxo'ja, "Miftoh ul-adl", "Gulzor", til uslub, qadimgi turkiy til, eski turkiy til, arabcha, fors-tojikcha, mo'g'ulcha, leksik, semantik, mavzuviy, maqol, hikmatli so'z, leksema, izofali birikma.

Agar jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo'lsa, uning joni va ruhi ma'naviyatdir. Biz yangi O'zbekiston barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi-bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi-ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat¹⁵¹.

Sh.M.Mirziyoyev

So'nggi yillarda boy ma'naviy merosimizning poydevori bo'lgan qadimgi qo'lyozma manbalarni o'rganish masalasi tez-tez tilga olinadigan masalalardan biriga aylandi. Darhaqiqat, adabiy-madaniy merosni saqlash va o'rganish ham tarixiy, ham ma'rifiy qimmatga ega. Bular o'zbek xalqining milliy iftixori hisoblanadi. Dunyodagi qadimiy va boy tillardan biri bo'lgan o'zbek tili xalqimiz uchun milliy o'zligimiz, mustaqil davlatchiligimiz timsoli, buyuk qadriyat sanaladi. Xalq og'zaki ijodi namunalari, ming yillik dostonlarimiz, alla va laparlarimiz hamda yozma manbalarimiz buning yorqin dalilidir. Qolaversa, o'zbek tilining tarixi xalqimizning ko'p asrlik kechmishi, orzu-tilishlari, dardu armonlari, zafarlar bilan chambarchas bog'liqdir. Bir so'z bilan aytganda, ajdodlarimiz ona

¹⁵¹ Mirziyoyev Sh.M. <https://yuz.uz/uz/news/jamiyat-hayotining-tanasi-iqtisodiyot-bolsa-uning-joni-va-ruhi-manaviyatdir>

tilimiz orqali jahonga o'z so'zini aytib kelganlar, ulkan ilmiy kashfiyotlar, badiiy durdonalar yaratganlar¹⁵².

XV asrning oxiri XVI asrlarda yashab ijod etgan Podshohxo'ja ibn Abdulvahhobxoja o'zbek adabiyoti tarixida ijtimoiy masalalarni o'ziga xos tarzda aks ettirgan kichik hikoyatlar muallifi sifatida mashhurdir. Podshohxo'ja Shayx Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi ulug' so'z ustalarining an'analarini davom ettirib, kichik hajmli ijtimoiy-siyosiy, axloqiy ta'llimiylar ruhdagi hikoyatlarini "Miftoh ul-adl" va "Gulzor" asarlarida keltirib o'tadi. Xojaning "Miftoh ul-adl" va "Gulzor" asarlari XI asrdan o'ziga xos an'ana tusini olgan pand-nasihat ruhida yozilgan badiiyat namunalari turkumiga mansubdir¹⁵³.

Xojaning "Miftoh ul-adl" va "Gulzor" asarlari tili va uslubini o'rganar ekanmiz, bir tomondan, Alisher Navoiy ijodiga ergashish kuzatilsa, ikkinchi tomondan, dialektlarning adabiy tilga bo'lgan ta'siri yanada kuchayganligini ko'rish mumkin. Xojaning asarlarida adabiy tilning soddalashtirilganligi, xalqona ohangdorlik, ravonlik, tushunarilik, o'ziga xos badiiyat qirralari sezilib turadi. Xoja xalq og'zaki ijodi namunalari, ya'ni maqollar va hikmatli so'zlardan unumli foydalanadi: "*ne eksa, oni o'rар*"¹⁵⁴, "*it vafo dargog'idin ketgon ermas*", "*Teng erur o'shal damda shohu gado*" kabi. Masalan: *Emdi bilmoq kerakkim, har kim bu dunyoda ne eksa, oni o'rар* (15-bet); *Butimor aydi: yo rasulallo, ot vafo dashtida o't o'tlag'on ermasdur va it vafo dargog'idin ketgon ermas* (42-bet);

*Kishikim ajal bahrig'a bo'lди g'арq,
Shoh ilan gadog'a yoq ul damda farq.
Qachonkim yetishti xudodin qazo,
Teng erur o'shal damda shohu gado.*
(31-bet)

Xoja asarlarida arabcha, forscha so'zlarga qaraganda turkiy so'zlar ko'proq ishlatilgan. Unda *yozuk, el, et, to'n, bo'z, ev, yag'mo, tanga, to'shak, so'ngok, bek, pichoq, yag'och, ko'za, ko'pruk, axtaxona* kabi turkiy, *cherik, navkar* kabi mo'g'ulcha so'zlar qo'llangan. Masalan: *Taqi Luqmon aydi: ey xoja nechukkim yozuk o'rninda savob bitar, savob o'rninda yozuk bitar?* (15-bet); *Bir kun bir elchi keldi, aydi: ey podshoh falon bek sizg'a yog'i bo'lди, cherik tortib kelaturur* (18-bet); *Bir kun qo'ylarimni sanadim, ersa kam keldi, taqi ikkilamchi kuni ham sanadim, yana eksuk keldi, ajoyibg'a*

¹⁵² Abdushukurov B. O'zbek adabiy tili tarixi. -T.: "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2020. -B. 3.

¹⁵³ Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr birinchi yarmi). Darslik ikkinchi nashr. -T.: Innovatsiya-Ziyo. 2020. -514 b.

¹⁵⁴ Пашшохўжа. "Мифтоҳул адл" ва "Гулзор"дан. ЎзССР Давлат бадиий адабиёт нашириёти. 1962. -Б.12.(Keyingi о'rnlarda keltirilgan misollar ushbu asardan olingan).

qoldim (19-bet); *Uyga borib, o'shul kissani ochub ko'rsam mis tanga bo'lubdur* (25-bet) kabi.

Leksik jihatdan xalq jonli so'zlashuv tiliga oid leksemalarni ko'plab uchratish mumkin. Jumladan, *falon, qari, eksuk, uloq, aqcha, laklak, eshak, it, teve, bo'yoqchi, sufra, chibchuq, ayvon, qulun, kisrok, chubon, situn, yilqibon, qo'nshu* kabi. Masalan: *Bir kun qo'ylarimni sanadim, ersa kam keldi, taqi ikkilamchi kuni ham sanadim, yana eksuk keldi, ajoyibg'a qoldim* (19-bet); *Taqi aytibdurlarkim, qayu xazinaga zulmning bir aqchasi kirsa ul xazinani yiqmayin qo'ymas* (23-bet); *Oni olg'och chibchuq uchib ketti* (43-bet); *Ondin so'ng kisroklarg'a minib, qulunlarini tashqarida bog'lab zulmotg'a kirdilar va yana salomat chiqdilar* (49-bet) va h.k.

Shuningdek, *tolib, ilm, farrosh, raiyat, umaro, me'mor, hukm, hokim, qal'a, hukamo, tahsil, taom, jam', adolat, odil, tarbiyat, ta'zim, muhr, supra, maosh, aso, mol, xazina singari arabiya va ustod, gunoh, panoh, xo'rak, botmon, mis, kissa* kabi forscha so'zlar ham uchraydi. Masalan: *Ondin so'ng farrosh kelib to'shakni yig'or bo'ldi* (25-bet); *Bir ustod to'qug'uvchi bor erdi* (26-bet); *Ayturlarkim, No'shiravoni odil adolat qiluv maslahati uchun hukamo birlan beklarni jam' qildi va ayttikim, raiyat birlan neturluk maosh qilsok munosibi davlatdur?* (40-bet) kabi.

Xoja o'zining asarlarida leksik jihatdan o'sha davr uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan badiiy vosita sifatida arabiya va forsiy izofali birikmalardan keng foydalangan: *ustodi fan, dog'i gulzor, guli ra'no, Iskandari davron, yori vafodor, tolibul ilm, tahsili ilm, mulki jahon, arkoni davlat* kabi. Masalan.

Bir necha vaqtin so'ng, tahsili ilm qilib keldim, ersa qozi oldig'a bordim, o'shul amonat qo'yg'on nimarsani bering deb (25-bet); *Ul tolibul ilm aydi: laklak doim yilon yer ermish* (25-bet);

Musallam ul shohgaki, mulki jahon,

Ki miskin g'amidin, emas oshu non.

(34-bet)

Hechkim ustodsiz topmas jahonda izzu joh,

Nechakim, hashmat bila, Iskandari davron erur.

(51-bet)

Bundan tashqari Xoja asarlari tilining leksik-semantik xususiyatlarini o'rganar ekanmiz, unda turli xil mavzuviy guruhlarga oid istilohlar borligini aniqladik. Jumladan:

1) **ijtimoiy-siyosiy istilohlar¹⁵⁵:** *raiyat, tadbir, siyosat, podshoh, vazir, elchi, umaro, bek, dushman, hukm, yorlig', muhr, devonxona, jarchi, hokim, qozi, hukmxona, yorlig', xiroj, dushman, yog'i* kabi. Masalan:

¹⁵⁵ Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. -T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. -B. 37.

Vazir "podshoh uchun haj sotg'un olmoq kerak" deb istab yurar erdi, bir kimarsag'a yo'luqtin (13-bet);

Bir kun bir elchi keldi, aydi: ey podshoh falon bek sizg'a yog'i bo'ldi, cherik tortib kelaturur (18-bet);

Umaro va arkon davlatlar barcha aydilarkim, siz hukm qilib erdingizkim, hech qari kishi kelturmasunlar (49-bet);

Umaro dedilarkim: hukm va yorlig' sizning turar, harna hukm qilsangiz turubsiz (37-bet);

Ul kissani muhri birlan chiqarib berdi (25-bet);

Ayturlarkim, Shayxi Bahlul devona alayhi rahma bir kun Xorunar-Rashid xalifaning devonxonasiga kirdi (49-bet).

Bahrom bu so'zni eshitti, ersa hayron bo'di, maning qulum manga nechun yog'i bo'ldi (18-bet).

Raiyatni tadbir ila rom qil,

Adolat-la har yerda orom qil.

(41-bet)

2) harbiy istilohlar¹⁵⁶: navkar, chirik, qilich, lashkar, silohu Sovut kabi.

Masalan:

Beklar ayttilar: agar ulug' podshoh bo'lurman tesong navkarga kulli riyat qil va lashkarni qaviy qilib raiyatdin tangani ko'b olib navkarga berg'il, to dushman sangza zafar topmasun (40-bet);

Har necha otasig'a aydikim, sen turgil, chirikka bormog'il, otasi aydi:man sandin ayrilabilmasman (49-bet).

3) inson tana a'zolari bilan bog'liq leksema (samotizm)lar: bosh, so'ngok, og'iz, burun, teri, yanoq, ilik, ko'z, qulqoq, oyoq kabi. Masalan:

Sulton aydi: ul kun nechun og'iz-burningni tutub kelding, tedi (16-bet);

Shayx aydi: man bir soat saning taxtingda o'lturdim, ersa urub boshimni yordilar (49-bet);

Iskandar aydi: ey Devona, bu churuk so'ngokni odam nechuk farq qilurkim, bu so'zni aytursan? (31-bet);

Bekni tirik teridin chiqordilar (23-bet).

4) qavm-qarindoshlik istilohlari: ota, o'g'il, ota-o'g'illik, qiz, ahli ayol, qarindosh kabi. Masalan:

¹⁵⁶ Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. -T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. -B. 37.

Magar maning **o'g'lum** manga e'timod qilib mundog' ishni qilg'on bo'lg'oy va sham'ni oning uchun so'ndurtdimkim, shoyad maning **o'g'lim** bo'lsa, anga nazarim tushsa, manga **ota-o'g'llik** mehri tebrangan va o'ldura olmog'ayman, tedi (34-bet);

Har necha **otasig'a** aydikim, sen turgil, chirikka bormog'il, **otasi** aydi:man sandin ayrilabilmasman (49-bet);

Ul kishi bul kishini boshlab ibodatxonag'a eltti ersa ondin so'ng ul kishi Iskandarning kelgonin ul **qavmga** bildurdi (44-bet).

5) tibbiy istilohlar: *yag'ir, xasta, qo'tur, dard* kabi. Masalan:

Emdu bu eshak qari bo'ldi va arqasi **yag'ir** bo'ldi, ersa egasi muni ozod qilibdur, o't ham bermaydur, borsa urub qovaturur, emdi och bo'lub, ko'chalarda yurgonda o'g'lonlar ham tosh birla urarlar, tedi (24-bet);

Chun bo'libman xastau zoru zaifu notavon,

Notavong'a zulm qilmoq loyiqu ehson emas.

(50-bet)

6) teonimlar: *darvish, yozuk, savob, qiyomat, zakot, ushr, masjid, Ollo talo, Xudo, kalimai shahodat, Tangri, ibodatxona, payg'ambar, tavba* kabi. Masalan:

Taqi Luqmon aydi: ey xoja nechukkim **yozuk** o'rninda **savob** bitar, **savob** o'rninda **yozuk** bitar?(15-bet);

Ul aydi: man falon mahallada bir boy erdim, faqirlarga va miskinlarga osh, non, **zakot** va **ushr** berar erdi (20-bet);

Ondin so'ng amr qildi; bu eshakka har kunda ikki botmon yemin bersun va taqi bir axtaxona yasasun yotmoqig'a, va agar andoq qilmasa sizlar kelib manga oyitg'aysizlar, agar oyitmasangizlar **qiyomatda** bu eshakning **gunohi** sizlarning bo'yningizda turur, tedi (24-bet).

7) etnonimlar: *el, ulus, qavm* kabi. Masalan:

Xaloyiq barcha ko'chib keta boshladi, **el-ulusu** borchalari torxashdi, shaharlar xarob, xazinaga mol kirmas bo'ldi (18-bet).

Ul kishi bul kishini boshlab ibodatxonag'a eltti ersa ondin so'ng ul kishi Iskandarning kelgonin ul **qavmga** bildurdi (44-bet).

8) fitonimlar: *anor, olubolu, zardoli, buta, sarimsoq, arpa, bug'doy* va h.k. Masalan:

Qachonkim ekin tamom bo'ldi, ersa Luqmonning xojasi keldi, ko'rdikim, **arpa** yerida **bug'doy** ekilmish va **bug'doy** yerida **arpa** ekilmish (15-bet);

Anor o'z shoxidin ko'rsatsa ruxsor,

Chaman bo'lur xijilu dog'i gulzor.

(52-bet)

Ko'runur olubolu onda yakson,

Ki go'yo, la'l'u marjondur namoyon.

*Chekibdur ishq yo'lida base dard,
Aning uchun erur zardolisi zard.*

(52-bet)

9) zoonimlar: *uloq, it, eshak, teve, sigir, at, to'ti, kisrok, qulun, qo'y, yilqi, laklak, yilon, kiyik, boyqush kabi.* Masalan:

Ayturlarkim, Iskandari Zulqarnayn bir viloyatga yetishti, ko'rdikim, suruk-suruk qo'yilar yururlar, chuboni yo'qtur va suruk-suruk tevalar yururlar sorboni yo'qtur, suruk-suruk yilqilar yururlar, yilqiboni yo'qtur (44-bet);

Ondin so'ng kisroklarg'a minib, qulunlarini tashqarida bog'lab zulmotg'a kirdilar va yana salomat chiqdilar (51-bet);

Nogoh shaharning qirg'og'inda ikki boyqush so'zlashur erdi (14-bet).

10) yosh va jins semasini izohlovchi so'zlar: *yigit, qari, xotun, qarilik, yigitlik kabi.* Masalan:

Ul tolibul ilm aydi: otam bir qari kishi erdi, o'ldi, ersa, moli ko'b qoldi (25-bet);

Ondin so'ng ul xotin harna bo'lg'on voqealarni bir-bir bayon qildi, ersa No'shiravon buyurdikim, bul xotunni bir uloqqa mindurub falon shaharg'a olib boring, har kuni xo'rak bering (22-bet);

Hosilkim, ul yigitga zarurat bo'ldi, garchi xilofi hukm ham bo'lsa, otasini bir sanduqg'a solib, ul sanduqni tevaga yuklab, olib ketti, va harqachon chiqarsa yoshurun chiqarur erdi, to ul vaqtgachakim zulmotga yettilar (49-bet).

11) mavhum otlar: *shodlik, tiriklik, g'amginlik, faqirlilik, g'aniylik kabi.* Masalan:

Devona aydi: avval bir tiriklik berg'ilkim, aning so'ngidin o'lum bo'lmasun, va yana, bir yigitlik berg'ilkim, aning so'ngida qarilik bo'lmasun, va yana bir g'aniylik berg'ilkim, aning so'ngida faqirlilik bo'lmasun, taqi bir shodlik berg'ilkim, aning so'ngidin g'amginlik bo'lmasun (31-bet).

12) o'rinn-joy semasini izohlovchi so'zlar: *shahr, daha, viloyat, qal'a, bozor, ev, axtaxona, ko'pruk kabi.* Masalan:

Ul amin kishi bul so'zni eshitti, ersa qaytib No'shiravon shahrig'a keldi (23-bet);

Ondin so'ng ul kishi ul shaharga borub, ul xotunning dahasiga bordi, so'rди (22-bet);

Andog'ehtimom qildilarkim, olti oyda ul shaharning qal'a va bozor va evlari mukammal bo'ldi (37-bet);

13) ta'lim-tarbiya oid so'zlar: *ilm, ustod, fan, tarbiyat, tahsil kabi.* Maslalaran:

Kelg'il bu mamlakatning podshohlig'in qabul qilg'ilkim, sang'a ulug' tarbiyat qiloyum (31-bet);

Ul tolibul ilm aydi: man shuncha vaqtan berli **ilm** tahsil qildim xudo rizosi uchun (28-bet);

Har necha bo'lsa kalomi komilu ustodi fan,

O'z boshin qirqorda doim ojizu hayron bo'lur.

(51-bet)

14) qimmatbaho tosh va madan nomi: *la'l, tillo, mis, altun, inju kabi.* Masalan:

Uyga borib, o'shul kissani ochub ko'rsam mis tanga bo'lubdur (25-bet);

*Ondin so'ng qozidin borib so'rdim, ersa ul qozi aydi: man bilmon, mang'a bir muhrlik kissa berding, **altunmu** va yo boqirmu, bilmayman, muhrin sang'a buzmay berdim* (25-bet);

*Sulton amr qildikim, xazinadin zarkash to'n kelturing, yana ham bir tabaqg'a yorim **tillo** va yorim tanga qilib olib kelng* (38-bet).

15) yil, fasl, vaqt, hafta kunlari: *yil, oy, kun, avqot, kunduz, kecha, soat, tush, vaqt, tonglosi, subh, shom kabi.* Masalan:

Tonglosi ikki lashkar bir-birisiga saf tortub ro'baro' bo'ldilar (17-bet);

Anbarin zulfung xayolidin ko'zumga ey pari,

Yilu oyyu soatu kun bori yakson kechadur.

(53-bet)

Kunduz avqotim saning hajringla nolon kechadur,

Kechalar zulfung kabi holim parishon kechadur.

(53-bet)

Manda yo'qtur podshohlik orzusi dahr aro,

*Ondin o'tub haq bilan mashg'ulman har **subhu shom.***

(30-bet)

16) moliyaviy istilohlar: *aqcha, maosh, xazina, ujra, pul, tanga kabi.* Masalan:

*Taqi aytibdurlarkim, qayu **xazinaga** zulmning bir aqchasi kirsa ul **xazinani** yiqlayin qo'ymas* (23-bet);

*Ul shaharda bir tul xotun bor erdi, ul xotunning bir parcha yeri bor erdi, yerni yarim yilga berib **ujra** olur erdi* (21-bet);

*Raiyatga adl qilsang **maosh,***

*Kam o'lmas saho **sufrasi** ichra osh.*

(41-bet)

17) kasb-hunar leksikasi: *bo'yoqchi, me'mor, usto, farrosh, to'qug'uvchi, qo'ychi, chubon, sorbon, yilqibon, bozirgon, pulchi, qozi kabi.* Masalan:

*Filhol hukm qildikim, **me'morlar** va **ustolar** borib ul jazirada bir shahr maqbul bino qildilar* (37-bet);

No'shiravon aydi, ul eshak bizdan dod istar erkan, emdi borib ul eshakning egasini ikki qo'nshusu birlon olib keling, tedi va yana ondin so'ng borib so'rdilar, bilaturganlar aydilar; bu eshak **bo'yoqchiniki** turur har kun munga to'nlar va bo'zlar yuklab suv boshig'a borur erdi (24-bet);

Ondin so'ng **farrosh** kelib to'shakni yig'or bo'ldi (25-bet);

Bir ustod **to'qug'uvchi** bor erdi (26-bet);

Ayturlarkim, Iskandari Zulqarnayn bir viloyatga yetishti, ko'rdikim, suruk-suruk qo'ylar yururlar, **chuboni** yo'qtur va suruk-suruk tevalar yururlar **sorboni** yo'qtur, suruk-suruk yilqilar yururlar, **yilqiboni** yo'qtur (44-bet).

18) maishiy leksika: sanduq, to'n, boz, aso, tabaq, situn, to'shak, pichoq, kosa, sarpo, sufra, kabi. Masalan:

Sulton amr qildikim, xazinadin zarkash **to'n** kelturing, yana ham bir **tabaqg'a** yorim tillo va yorim tanga qilib olib keling (38-bet);

Bu kecha yotib, erta turg'onda, **to'shakning** bir yeridin **pichoq** birlan yordi (25-bet);

Ammo anga loyiq bir **situn** kerak bo'ldi, hech yerdin qarab topmas erdilar (38-bet);

Ondin so'ng ul xotun qo'lig'a bir **aso** olib, Zindadur degan ko'prukni tutib turdikim, Sultonning guzari ul ko'prukdin edi (44-bet).

19) oziq-ovqat nomlari: et, non, sirko, taom, tunmoch, osh, shulon kabi. Masalan:

Ondin so'ng **etini** itlarg'a berdilar(23-bet);

Aning molidan bir yilga **to'rt** **non** kunda bo'lur erdi (21-bet);

Bu uch kunda **taom** yegan ermas erdim va yotolmag'on edim, uyqu kelmadi, oning uchun saning **taomingdin** ko'b oshadim va ham yotib uxladim (34-bet);

Sulton ul **nonu** sirkodin ko'b yedi (33-bet);

20) ichkilik va ichimlik nomlari: ichku, sharob, suv kabi. Masalan:

Bahrom tun-kun **ichku** ichar, taqi ixtiyori manda turur, xazinada mol qo'ymadim, elning yaxshilarini yo'q qildim, ishqa yaramaslari qoldi (20-bet);

Ondin so'ng, bir **sharob** ichib, otga minub borur erkan oti urkub, ko'tarib yerg'a urmish, ul taqi o'l mish (29-bet);

Manga **suv** bergil (18-bet).

21) antroponomilar: Ayoz, Sulton, Iskandar Zulqarnayn, Doro, Bahrom go'r, Rostiravshan, No'shiravon, Sulton Mahmud G'aznaviy, Ali, Sulton Malik kabi. Masalan:

Ayturlarkim, **Shayxi Bahlul** devona alayhi rahma bir kun **Xorunar-Rashid** xalifaning devonxonasiga kirdi (49-bet);

Ayturlarkim, **Sulaymon** payg'ambarg'a bir kishi bir oz obi hayot kelturdi (41-bet);

Ayturlarkim, **Sulton Sanjari Moziyning** otasi **Sulton M alik** podshoh erdi (45-bet);

Va aning otasi **Olp Arslon** erdi (45-bet).

22) toponimlar: *Sanjari Moziy Marv, Xamadon, Ozarbayjon, Madoyin, Turkiston, Kufa, Ka'ba kabi. Masalan:*

Ayturlarkim, Sulton Sanjari Moziy Marv shahrida bir ayvon bino qildi (38-bet);

Sulton malikshoh Isfaxon viloyatig'a sayr qilmoqliq uchun chiqib erdi (45-bet);

Yigirma qatla Ka'bag'a yoyog' boribturur va taqi haj qilibturur va hechkishining oshin yemas, anga boring (13-bet);

Kunlardan bir kun Iskandar Zulqarnayn Xamadon shahrig'a kelib xiroj talab qildi, Xamadon begi bahodir erdi, xiroj bermadi, urushti (17-bet).

Ba'zi bir istilohlarni leksik-semantik xususiyatlariiga e'tibor qaratamiz. Jumladan, qadimgi turkiy tilda *beg* istilohi¹⁵⁷ "hukmdor, hokim, dohiy, yo'lboshchi, bek, askar boshligi va viloyat hokimi, xo'jayin" (DTS, 91), ANATILda "bek, amaldor" (I, 261) tarzida izohlangan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida *beg/bek* leksemasining ma'no kengayishi yuz berib, quyidagi ma'nolarni ifodalaydi: 1) turkiy xalqlarning ba'zilarida xonliklar davrida davlat arboblariga, shahar yoki viloyat hokimlariga, ularning bolalariga berilgan faxriy unvon hamda shunday unvonga sazovor bo'lgan shaxs;

2) erkaklar ismining tarkibiy qismi; 3) (I shaxs egalik shaklida) o'z begi yoki xo'jayniga murojaatda yoki ular haqida gapirganda ishlatalidigan so'z (O'TIL, I, 213). Xojaning "Miftohul adl" va "Gulzor" asarida esa so *beg* istilohi sultanatda xizmat qiluvchi yuqori mansabdar harbiylar va arkoni davlatga nisbatan qo'llangan: *Bir kun bir elchi keldi, aydi: ey podshoh falon bek sizg'a yog'i bo'ldi, cherik tortib kelaturur* (18-bet).

Čerig istilohi dastlab, qadimgi turkiy O'rxun-Enasoy toshbitiklari matnida keltirilgan¹⁵⁸. "Harbiy yurish vaqtida oliy hukmdor tomonidan chiqarilgan farmonga muvofiq yig'iladigan muntazam qo'shin, lashkar; kuch-qudrat" (ANATIL, III, 463; O'TIL, IV, 475) ma'nosida qo'llanuvchi čerik//čerig istilohi Xoja asarlarida ko'p o'rirlarda qo'llanilgan: *Bir kun bir elchi keldi, aydi: ey podshoh falon bek sizg'a yog'i bo'ldi, cherik tortib kelaturur* (18-bet); *Xazina ochturdi, ko'rarkim, moli yo'qtur, chirik yig'ilsun tedi, ko'rarkim, chirigi yo'q*(18-bet).

"*Pishirilgan issiq ovqat*" ma'nosidagi aš leksemasi (O'TIL, III, 168) ANATILda "*ovqat, taom*" (II, 540) ma'nosida voqelangan. Adib asarida esa "*ovqat, taom*" ma'nosida qo'llanilgan: *Taqi podshohona osh kelturub, shulonlar tortdilar* (35-bet) va h.k.

¹⁵⁷ Xo'janiyozova Sh. Alisher Navoiy manoqib asarlari leksikasi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. -T., 2022.-B.16.

¹⁵⁸ Дадабаев Х. Военная лексика в староузбекском языке. – Ташкент: Фан, 1990. – С. 34-35.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Podshohxo'janing "Miftoh ul-adl" va "Gulzor" asarlari o'zbek tili tarixini o'rganish nuqtayi nazaridan katta ilmiy, nazariy ahamiyatga ega bo'lib, ko'p qimmatli material beradi. Asar jonli xalq tilida yozilgan bo'lib, unda murakkab, tushunarsiz, uslubiy g'aliz jumlalar deyarli yo'q. Asar ancha ilgari yaratilganiga qaramay o'zining badiiy qimmatini yo'qotmagan. Adibning mahorati yana shunda ko'rindiki, uning asarlarida hikoyalar mazmuniga putur yetkazadigan o'rinsiz tasvirlash, bayon qilish uchramaydi. Shu tufayli adib asarlarining tili va uslubini ixcham, sodda, ravon, tushunarli bo'lishiga erishgan. Ayni paytda, asarlari tilining badiyligini oshirishda arabcha va forschatojikcha istilohlardan ham o'rinli foydalangan. Bir so'z bilan aytganda Podshohxo'ja o'zining betakror asarlari bilan o'sha davr adabiy tilining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirzoyev Sh.M. <https://yuz.uz/uz/news/jamiyat-hayotining-tanasi-iqtisodiyot-bolsa-uning-joni-va-ruhi-manaviyatdir>.
2. Abdushukurov B. O'zbek adabiy tili tarixi. -T.: "O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2020.
3. Дадабаев Х. Военная лексика в староузбекском языке. – Ташкент: Фан, 1990.
4. Dadaboyev H. Tarixiy harbiy terminlar lug'ati. -Toshkent, 2008.
5. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. -T.: "Yoshlar nashriyot uyi", 2019.
6. Dadaboyev H., Hamidov Z., Xolmanova Z. O'zbek adabiy tili leksikasi.-T.: "Fan", 2007.
7. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi (XVI-XIX asr birinchi yarmi). Darslik ikkinchi nashr. -T.: Innovatsiya-Ziyo. 2020.
8. Поншохўжа. "Мифтоҳул адл" ва "Гулзор"дан. ЎзССР Давлат бадиий адабиёт нашриёти. 1962.
9. Xo'janiyozova Sh. Alisher Navoiy manoqib asarlari leksikasi. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. -T., 2022.